

**XORAZM BOLALAR FOLKLORIDA QO'LLANILADIGAN
IBORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

Azatova Guliston

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm bolalar folklorida qo'llaniladigan iboralarning lingvokulturologik xususiyatlari keng yoritiladi. Tez aytishlar, sanoqlar, o'yin qo'shiqlari va bolalar ermaklarida uchraydigan iboralar xalqning milliy dunyoqarashi, madaniy qadriyatlari, urf-odatlar hamda bolalar tarbiyasi bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Xorazm hududiga xos folklor birliklarining madaniy mazmuni ochib berilib, ularning til va madaniyat uyg'unligidagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm folklori, bolalar folklori, ibora, lingvokulturologiya, milliy madaniyat, xalq og'zaki ijodi.

Xalq og'zaki ijodi har bir millatning tarixiy xotirasi, ma'naviy hayoti va madaniy tafakkurini o'zida mujassam etgan bebaho manba hisoblanadi. Folklor asarlari orqali xalqning hayot tarzi, urf-odatlar, ijtimoiy munosabatlari hamda axloqiy qarashlari avloddan avlodga yetib keladi [1, 15-b.]. Shu jihatdan folklor nafaqat badiiy-estetik, balki tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ham ega.

Folklorning muhim tarkibiy qismi bo'lgan bolalar folklori yosh avlodning dunyoqarashi shakllanishida alohida o'rin tutadi. Bolalar uchun yaratilgan folklor namunalari sodda til birliklari, qisqa va obrazli iboralar keng qo'llanilib, ular bolalar tafakkuriga mos holda yaratiladi [3, 42-b.]. Ayniqsa, iboralar bolalar folklorining asosiy badiiy vositalaridan biri bo'lib, ular orqali milliy madaniyat unsurlari bolalar ongiga singdiriladi.

Xorazm vohasi bolalar folklori hududiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda shakllangan folklor namunalari mahalliy sheva, tarixiy sharoit va turmush tarzini aks ettiradi. Xorazm bolalar folklorida tez aytishlar, sanoqlar va o'yin qo'shiqlari muhim o'rin egallaydi. Masalan, "**Sori sig'ir suzdi suvda**" kabi tez aytishlar bolalar nutqini rivojlantirish bilan birga, voha aholisi hayotida chorvachilik va suvning muhim o'rin tutganini ham ko'rsatadi [4, 81-b.]. Zamonaviy tilshunoslikda lingvokulturologiya tildagi birliklarni madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganadi. Bu fan yo'nalishida iboralar xalqning milliy tafakkuri, mentaliteti va madaniy tajribasini aks ettiruvchi muhim birlik sifatida talqin qilinadi [5, 26-b.]. Xorazm bolalar folkloridagi iboralar ham hudud aholisining tabiatga, mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan qarashlarini ifodalaydi.

Xorazm bolalar folklorida tabiat bilan bog'liq iboralar keng tarqalgan. Suv, yer, quyosh, shamol kabi tabiat unsurlari bolalar o'yinlari va qo'shiqlarida tez-tez uchraydi. Masalan, "**Suv keldi – jon keldi**" iborasi suvning hayot



manbai ekanligini ifodalab, bolalarda tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi [2, 113-b.]. Bu kabi iboralar Xorazm xalqining tarixan Amudaryo bilan chambarchas bog'liq holda yashaganini ko'rsatadi.

Bolalar folklorida qo'llaniladigan iboralar nafaqat madaniy, balki lingvistik jihatdan ham muhimdir. Ular bolalarning talaffuzini to'g'rilash, so'z boyligini oshirish va nutqiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tez aytishlarda uchraydigan takroriy tovushlar va qofiyali iboralar bolalarning fonetik qobiliyatini mustahkamlaydi [6, 54-b.]. Sanoq va o'yin qo'shiqlaridagi iboralar esa eslab qolish va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Masalan: Bir, ikki, uch, Uchdan puch, Po'stin bich, Yovg'on ich, Yig'no guch, Qanot yoz, Bor uch! Xorazm bolalar folkloridagi iboralar tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularda do'stlik, hamjihatlik, mehnatsevarlik va halollik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Masalan, o'yin jarayonida aytiladigan **“Mehnat qilgan – to'yadi”** mazmunidagi iboralar bolalarda mehnatga hurmat tuyg'usini shakllantiradi [3,58-b.]. Masalan: Qovun akdim armaka, Hammangiza barmaka! Qovunlo xom-xotolo, Iching og'riq otolo! Bunday iboralar orqali berilgan tarbiya bolalar ongiga oson singadi, chunki u o'yin va quvnoq mashg'ulotlar bilan uyg'unlashgan bo'ladi. Shuningdek, bolalar folkloridagi iboralar ijtimoiy munosabatlarni o'rgatishda ham muhim rol o'ynaydi. O'yin jarayonida aytiladigan iboralar orqali bolalar navbat kutish, qoida asosida harakat qilish va jamoa bilan ishlashni o'rganadi. Bu esa ularning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, Xorazm bolalar folklorida qo'llaniladigan iboralar lingvokulturologik jihatdan boy va sermazmundir. Ular xalqning milliy madaniyati, tarixiy tajribasi va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, bolalar tarbiyasi va nutqiy rivojida muhim o'rin tutadi. Shu sababli Xorazm bolalar folklorini, xususan undagi iboralarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2007. – 256 b.
2. Islomov Z. O'zbek xalqining an'analari va marosimlari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 240 b.
3. Jo'rayev M. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 180 b.
4. Madrahimov A. Xorazm folklori va etnografiyasi. – Urganch: Xorazm, 2012. – 220 b.
5. Safarov Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2010. – 160 b.
6. Yo'ldoshev B. Folklor va bolalar nutqi rivoji. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 140 b.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

